

SIFATLI TA'LIM-TARAQQIYOT POYDEVORI



*Rayimxo'jayeva Barnoxon Komilxo'ja qizi
Mingboyev Shohruxbek Obidjon o'gli
Siddiqov Sardorbek Zafarjon o'g'li
NamDU amaliy psixlogiya 2-bosqich talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada odamzod uchun hamma zamonlarda xam eng buyuk boylik bo'lib kelgan ta'limga ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, serqirra ekanligi fikr va xulosalar orqali tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье через мнения и выводы анализируются значение образования, которое всегда было величайшим богатством для человечества, его место и значение в жизни человека и общества, его значение.

Annotation: In this article, the meaning of education, which has always been the greatest wealth for mankind, its place and importance in the life of a person and society, and its importance, are analyzed through opinions and conclusions.

Kalit so'zlar: Tafakkur, taraqiyot, kambag'allik, kasbiy ta'lim

Prezidentimiz Shavkat Mjrziyoyev Miromonovich Yangi O'zbekistonni «ijtimoiy davlat» tamoyili asosida qurish asosiy maqsad qilib qo'yilganligi, shu jumladan, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun xalqimizga keng imkoniyatlar, munosib turmush sharoitlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish maqsadida birinchi navbatdagi e'tibor ta'limga qo'llab-quvvatlashga qaratilishi ta'kidlandi. Bugungi kunda eng katta investitsiya sifatida ko'rileyotgan ta'limga sifatini oshirish – Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning yagona to'g'ri yo'li bo'lishiga alohida to'xtalib, 2023-yilni «Insonga e'tibor va sifatli ta'limga yili» deb nomladi.

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtida O'zbekistonda ta'limga-tarbiyaga, shu jumladan, maktabgacha hamda umumiyligi o'rta ta'limga, oliy va o'rta maxsus kasbiy ta'limga yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmogda. Shunday ekan har bir inson sifatli ta'limga ega bo'lsagina vatanimizga foydasi tegadigan shaxs bo'lib yetishadi. Sifatli ta'limga olish uchun insonda eng avvalo qiziqish bo'lishi kerak. Farzand ona qornidaligidanoq kitobga mehr qo'yishi mumkin. Ona farzand dunyoga kelguncha va dunyoga kelgandan so'ng ham kitob o'qishga qiziqishini uyg'otsa turli xil kitoblar o'qib bersa farzand bog'cha, maktabga borganda ko'p qiyinchiliklarga duch kelmaydi ya'ni asta sekinlik bilan bolada kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi oshib boradi. Xalqimizda shunday maqol bor “qush uyasida ko'rganini qiladi” oilada sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojlar vujudga kelsa, farzandda ham anashunday ehtiyojlar yuzaga keladi. Sifatli ta'limga-taraqqiyot poydevori bo'lishi uchun birinchi qadam oiladan boshlanadi. So'ng bog'cha, maktab, universitetlarda davom etib boradi. Bizda ta'limga tizimi

rivojlanib borayotganini bog'chadan ham ko'rsak bo'ladi, ya'ni, ilgarilari 7 yoshga to'lib maktabga borib yozishni chizishni o'rgangan bo'lsak hozirgi davrga kelib bog'cha yoshida yozish o'rgatilyabdi. Alovida logoped, rassomlik, musiqa, raqs, mental arifmetika, ingliz tili, rus-tili boshqa darslaro'tilmoqda. Bunday sharoitlardan ko'rishimiz mumkinki yurtimiz sifatli ta'lim uchun qulay sharoitlar yaratib berilyapti. Demak maktab yosh davridagi bolalarda esa anchagincha bilim va ko'nikmalar paydo bo'ladi. Maktablar universitetlarda ham o'quvchilarni sifatli ta'limolishlari uchun zamonaviy texnik vositalar, shinam xonalar yaratilib berilmoqda. Prezident maktabi, Ibrat maktabi, Mirzo Ulug'bek maktabi, Abu Ali Ibn Sino maktabi, al-Xorazimiyy maktabi yoshlарimizning sifatli ta'lim olishlari uchun hamma shaoitlari bor ma'lum sohaga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil qilindi. Sifatli ta'lim berish talaba o'quvchilarining bilimlarini haqqoniy baholash uchun davlatimizda kredit modul tizimining yaratilishi ham bir qancha qulayliklarni yuzaga keltirdi.

Bizning sifatli ta'lim olishimiz uchun bizga sifatli ta'lim berilishi uchun otabobolarimizning asrlar davomida to'plagan xayotiy tajriba, bilimlar, axloqiy, ilmiy qarashlari mujjassam etgan qo'lyozma asarlari mavjud. 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujjasamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin.[1;4b] Agar yurtimizda yoshlарimiz o'rtasida yanadabilimli zakovatli insonlar ko'payib borsa ishonchim komilki bizning yurtimizni butun dunyo taniydi. Har bir yurtning tayanchi bu-bilim! Sifatli bilimni berishning ham qiyinchiliklari mavjud. Bilim sohiblari yoshlarga sifatli ta'lim berishchun doimo harakatda izlanishda yangi bilimlarni egallahdan to'xtamaydi. Kelajak yoshlарini yurtimiz tayanchi bo'lishi uchun doim harakatda bo'ladi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning shunday gapi bor edi, "Tafakkur" jurnaliga bergan interviyumda Amir Temur bobomizning "Kuch-adolatda" degan fikrini rivojlantirib, "Kuch-bilim va tafakkurda" degan g'oyani o'rtaga qo'ydim[2;16b] degan edi. Xalqimiz aytganidek bilagi bor birni yiqitar, bilimi bor mingni yiqitar deydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat fundamental bilimlar, balki insoniylikning turli qirralari o'rgatiladi. Shu bois, Sharqda ta'lim bilan tarbiya tushunchasi nutqda ham, amalda ham doimo birga ishlatilgan. Abu Nasr Forobi: "O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay bilmog'i lozim", "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Anashundagina u

insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", - deb ta'kidlaydi[3;42b]

Yangi O'zbekiston yoshlari kelajak poydevori bo'lishi uchun hamma birdek harakat qilishi kerak. Oila, ustozlari va albatta o'zimiz ham. Yoshlarga yaratib berilyotgan imkonatlardan unumli foydalansagina biz o'yagan natijalarga erishamiz. Albatta yoshlardan iroda kuchi, matonat talab qilinadi lekin shunday imkoniyat, sharoitlarni ko'rib har bir yosh avlodda o'qishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojlari oshib boradi. Yoshlardan talab qiliniyotgan yagona narsa faqat va faqat o'qish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Бадритдинова, М. Б. (2014). НЕКОТОРЫЕ СОВРЕМЕННЫЕ ВОПРОСЫ ПСИХОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ. ИНСТИТУТЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ: МИРОВОЙ ОПЫТ И РОССИЙСКАЯ ПРАКТИКА, 37.
2. Бадритдинова, М. Б. (2016). ПРОГРЕССИВНЫЕ И РЕГРЕССИВНЫЕ ТИПЫ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. *NovaInfo. Ru*, 2(40), 199-202.
3. Бадритдинова, М. Б. (2016). ИНТЕНСИВНОСТЬ СТИМУЛА И АНАЛИЗ КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ. *NovaInfo. Ru*, 3(42), 295-300.
4. Baxromovna, B. M. (2019). KOGNITIV USLUB BILAN BOG'LIQ METAUSLUBLARNING RIVOJLANISHI. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, (6).
5. Бадритдинова, М. Б., & Аъзамов, У. (2020). Психологические особенности развития когнитивного стиля в учебном процессе. *Учёный XXI века*, (1 (60)), 74-78.
6. Бадритдинова, М. Б. (2017). КОГНИТИВНЫЕ ОЖИДАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С УПОТРЕБЛЕНИЕМ АЛКОГОЛЬНЫХ НАПИТКОВ. *NovaInfo. Ru*, 5(58), 354-358.
7. Бадритдинова, М. Б. (2018). КОГНИТИВНЫЙ СТИЛЬ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОГО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ. In *ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ РОССИИ* (pp. 29-35).
8. Badritdinova, M. B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 380-386.